

BUXORO HUSAYNIYAXONALARI TARIXIDAN

Annotatsiya. Buxoro eroniyalarining asosiy diniy marosimlari husayniyalarda o'tkaziladi. Maqola Buxoroda saqlangan eng qadimiy shialarning masjid va husayniyxonalari arxitekturasini va tarixiga bag'ishlangan. Buxoroda mavjud husayniyxonalar arxitekturasini ilmiy muomalaga jalb qilinmayotgan mavzu bo'lganligi esa ishning dolzarbligini oshiradi. Tadqiqotda eroniylarni shialik bilan bog'liq asosiy marosimlari va uning ba'zi asosiy aspektlarini qisqacha sanab o'tdik.

Kalit so'zlari. Buxoro, husayniya, shia, guzar, shayx, to'quvchilik, gulobxona, debocha, miniatyura, ziyoratnoma.

ИЗ ИСТОРИИ ХУСАЙНИЯХАНЫ БУХАРЫ

Аннотация. Статья посвящена архитектуре и истории древнейшей шиитской мечети и хусайнии в Бухаре. Еще более актуальным делает работу то обстоятельство, что архитектура существующей хосайнии в Бухаре является предметом, не вошедшим в научный оборот.

Ключевые слова. Бухара, хусайния, шиит, гузар, шейх, ткачество, гулобхона, debocha, миниатюра, паломничество.

THE HISTORY OF HUSAINIAKHANA OF BUKHARA

Annotatsiya. The article is devoted to the architecture and history of the oldest Shiite mosque and husayniya in Bukhara. The fact that the architecture of the existing husayniya in Bukhara is a subject that is not involved in scientific circulation makes the work even more relevant.

Keywords. Bukhara, hussayniya, shiite, guzar, sheikh, weaving, gulobkhona, debocha, miniature, pilgrimage.

Kirish. Buxoro Eron va Turonni birlashtirgan tarix va madaniyatlar kesishgan makondir. Buxoroda qadimdan turli millat va din vakillari yashab kelishgan. Bu yerda turklar, eroniylar, arablar, yahudiylar, hind, xitoylar va boshqa xalqlar birga yashashgan. Buxoro yahudiylari keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarga tortilgan. Buxoro yahudiylari faqat shaharlarda istiqomat qilishgan. Buxoro eroniylari esa shahar markazlari va voha bo'ylab yashab kelishmoqda. Ammo Buxoro vohasida yahudiylarga nisbatan eroniylar keng tarqalgan bo'lib, tadqiqotda eroniylarni birlashtiruvchi husayniyalar haqida so'z yuritiladi. Qadimdan Buxoro hududi ko'p millatlar va dinlar vakillari uchun bir makon vazifasini bajargan. XX asr boshlariga qadar Buxoroning eng qadimgi mahalliy eroniy xalqlari turli (asosan, yashab kelgan va ko'chib kelgan hudud) nomlar bilan atalib kelgan. Keyinchalik olimlar tomonidan bu xalqlarga "eroniy" atamasini umumiy ma'noda ishlatish shakllandi. Bu xalqlarning ajratib turuvchi asosiy belgi ularning diniy qarashlari hisoblangan. Buxoroda eroniy shialarning tarqalishi Somoniylar davridan oldin boshlanib, barcha davrlarda ham mavjud bo'lgan[1.83].

Asosiy qism. Biz ushbu tadqiqotda XVIII asr oxirgi choragini Buxoroda eroniylar diasporasining shakllanishi deb belgiladik. Xalq uchun ma'lum bir makonda ijtimoiy-madaniy markazlarning shakllanishi - ularni uzoq davrlar davomida birlashtirish va yashovchanligini asoslaydi. Bu alohida tadqiqot muammosi bo'lganligi sababli bu yerda to'xtalmadik.

Xalq birligini, an'alarini saqlovchi avloddan avlodga yetkazuvchi muhim makon bu eroniylarda Husayniyxona hisoblanadi. Buxoro husayniyalari o'ziga xos uslubda shakllangan. Hozirda Buxorodagi eng qadimiy husayniya XIX asr boshlariga tegishli bo'lib, Buxoro shahriga yaqin Tor-tor mahallada joylashgan. Umuman olganda Buxoroda jami 5 ta husayniya mavjud. Hozirda ulardan faqat bittasi faoliyat yuritmoqda. Husayniyxonalarda shia jamoasiga rahbarlik qiluvchi kishilar "shayx" deb yuritilgan. Ular nafaqat diniy, balki turli marosim, mahalladagi turli masala va boshqa jamoat ishlariga ham rahbarlik qilishgan.

Buxoro shahrining Juybor mavzeyida XVI asrdan boshlar eroniylar istiqomat qila boshlashgan. Ular o'zlarining diniy alohidaligini saqlab qolishgan va husayniyxonalar ham bunyod etishgan. Ularning asosiy kasbi mato to'qish va misgarlikdan iborat edi. Shuningdek, amirlik qo'shinida ham ularning aksariyati

26 xizmat qilishgan.

XVIII asrga kelib eroniylar, asosan, Buxoro shahrining janubiy qismida Juybor va Xiyobon mavzesida istiqomat qilishgan. Shahar devoridan g'arbda Qumrabot va janubda Afshor mahallada ham ba'zi guruhlar istiqomat qilishadi. Shuningdek, ular shaharning G'arbiy qismida ham qisman yashashgan. Buxoro eski shaharining markazida joylashgan To'pxona va Do'st Chuxra og'asi mahallalarida eroniylarning eng avvalgi jamoalari istiqomat qilishgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida eroniy shialarning ko'plab marosimlari ichida shaxsey-vaxsey (Shoh Husayn - Voh Husayn) marosimi keng ko'lamda o'tkazilish holatlari ham bo'lib turgan. Husayniyxonalardan, asosan, Muharram oyining 10 kunligida Ashuro (arab tilida 10 ma'nosida) motam (Imom Husayn va uning jamoasi Iroqning Karbalo dashtida qatl qilingan kun) marosimida 40 kungacha foydalanishgan. Oxirgi vaqtlarda shaharning Samarqand va Shirgaron darvozalari tashqarisida ochiq maydonda ommaviy motam marosimi o'tkazilgan [2.160]. Marosimning asosiy holatlaridan biri "zanjirzan" (inson o'zini maxsus dastakka bir necha kalta metall zanjirlar biriktirilgan kaltak bilan yelka oqasidan urish) bo'lib o'tgan va boshqa turli marosimlar o'tkazilgan. Quyida husayniyxonalar joylashgan mahallalarni birma-bir sanab o'tamiz.

Dastorbandon (salla bog'lovchilar) guzarida bir necha eroniylar oilasi bo'lib, ularning asosiy mashg'uloti turli ipak matolarni to'qish bo'lgan. Bu yerda salla tayyorlovchilarning oilasi ham istiqomat qilgan. Guzarda husayniyxona ham qurilgan. Hozirgi kunda bu guzarda Xo'ja Mir Ali masjidi va husayniyasi faoliyat yuritmoqda.

Xavzi bobo Niyoz (Juyzar) husayniyasi. Buxoro eski shahar qismida Xavzi bobo Niyoz guzarida asosan eroniylar istiqomat qilishgan va shaharning janubiy qismida shu yerlik Domullo Rizo uyida ham husayniyxona ochilgan. Ya'ni Ashuro uchun maxsus binolar qurilmaganda yoshi ulug', jamoada hurmatga ega, ma'lum diniy bilimlarga ega kishilarning katta xonali uylarida marosim bo'lib o'tgan.

Tai Chorbog' (Guzari Nav) - mahalla amir Nasrilloxon chorbog'ining yonida joylashganligi sababli shunday atalgan. Bu guzarda to'liq eroniylar istiqomat qilgan bo'lib, asosiy mashg'uloti paxta va yarim ipak matolarni to'qishdan iborat bo'lgan. Shuningdek, ziravorlar sotish va mayda savdo ishlari bilan ham shug'illanishgan. Matolarni terma uslubida (Eronning Yazd va Hindistonning Kashmir shaharlarida bunday matolar to'qilgan) tayyorlashgan. Bu guzarda shialar jamoasining diniy boshlig'i shayx Madqosim (Marnadi Qosim yoki Mashxadi Qosim) ham yashagan. U o'z uyida artofdagi shialar jamoasi uchun husayniyxona va hammom qurgan. Ayollarga esa shayx Madqosimning ayoli rahnamolik qilgan. Bu bino asosan Ashura oyida bo'lib o'tadigan ta'ziya marosimlari uchun qurilgan. Boshqa vaqtlarda bu yerda diniy kitoblar o'qish uchun jamoa yig'ilgan. Bu husayniyxona Shayx Muhammad Qozi deb ham yuritilgan [3.54]. Hozirda yirik husayniya binosi, yerto'las va hammomi saqlangan.

Hovuzi baland guzari. Bu guzarda ham asosan eroniylar yashashgan. Guzar aholisining asosiy mashg'uloti ipakchilik bo'lgan. Shayx Abdulxoliq uyida husayniyxona tashkil etilgan bo'lib, faqat ashura oyida diniy marosimlar o'tkazilgan. O.Suxareva o'z tadqiqotlarida bu husayniyxonani shahardagi eng ko'hnasi deb ko'rsatadi [2.160].

Morkush (O'rdayi mavrixo) guzari. Bu guzarining bir qismida eroniylar istiqomat qilgan bo'lib, ularning bir qismi shirinliklar tayyorlash va sotish bilan shug'illangan, yana bir qismi ziravor va adras matolarni sotishgan hamda sipohlikka yollanishgan. Guzarda taxminan XX asr boshlarida Buxorodagi eng yirik husayniyxona qurilgan. Sobiq Ittifoq davrida makaron zavod shu binoda va uning atrofida faoliyat yuritgan.

To'pxona guzari. Bu yerga eroniylar Jo'ybor mavzesidagi eroniylarga nisbatan oldinroq kelib o'rtnashishgan. Asosiy mashg'ulotlari pillakashlik, shoxiboflik va baxmalboflik bo'lgan [4.223]. Shuningdek, guzar aholisining bir qismi duradgorlik va tosh teruvchilik bilan shug'ullangan. Guzardagi eroniylardan birining uyida ayollar va erkaklar uchun alohida husayniyxona ham qurilgan edi.

Afshor mahalla husayniyxonasi. Nodirshohning Buxoro hududiga 1740-yilgi yurishi davrida o'zi bilan olib kelgan askarlarining bir qismini Buxoro shahri atrofiga joylashtirib ketadi. Ushbu davrdan bu Afshor mahalla shakllandi va bugungi kungacha mavjud bo'lib, bu yerda husayniyxona ham saqlangan. Bino Sobiq Ittifoq davrida maktab sifatida foydalanilgan. Hozirda yopiq va madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritish ishlari olib borilmoqda.

Zirabod xusayniyxonasi. Amir Shohmurod davrida (1785-1800) Marv va Eronning shimoli sharqiy qismlari bir necha bor bosib olinadi. Tub joy aholisi qarshilik ko'rsatishi natijasida amir ularni Buxoro va Samarqand hududlariga ko'chirib keltiradi. Ularning bir qismiga Buxoro shahri atrofidagi, hozirgi Kogon tumani hududiga qarashli yerlardan joy beradi. Shu vaqtdan boshlab bu yerlar Zirabod deb nomlandi va shia oqimiga mansub eroniy kishilar shu yerda yashab qolishdi. Qishloq markazidagi masjid va husayniyxona shu davrdan faoliyat ko'rsata boshladi. Sobiq Ittifoq davrida Zirabod xusayniyxonasi

kutubxona va klub vazifasida foydalanilgan. Hozirda eski masjid va husayniya buzilib, o'rnida yangilari qurilgan.

XX asr o'rtalarida Buxoroda birorta ham xusayniyxona faoliyat ko'rsatmagan. Ularning binolari turli tashkilotlarga maktab, klub, kutubxona, omborxona sifatida va fabrikalarga ham berilgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach diniy amallar uchun keng erkinliklar beriladi. Shu davrda husayniyxonalarni ham ochishga va yangilarini qurishga ruxsat berilgan. Masalan, Tor-tor mahallada 1991-yilda yangi masjid qurib aholiga topshirilgan.

Tor-tor mahalla husayniyasi. Bu joy Buxoro shahridan g'arbdagi va hatto shaharda istiqomat qiladigan eroniylarni ham birlashtirib turgan. Husayniya tarixi 300 yilga yaqin bo'lib, mahalliy keksalarning aytishicha, majmuani zirobodlik Og'o Said Xoji Ismoil bunyod etgan. Majmua juda yirik bo'lib, darvozadan kirganda kichik daxliz, undan faqatgina ikkinchi qavatga chiqish uchun yog'och zina mavjud. Daxlizdan to'g'ri yopiq hovliga kiriladi. Markazda usti to'rtburchak yog'och gumbazli yopiq hovli bo'lib, atrofi alohida xonalardan iborat. Oyoq osti pishgan g'ishtdan terilgan. Gumbaz ostida quduq ham saqlangan. Daxlizdan chapdagi xona sharbatxona (gulobxona) deb nomlanib, ichkari hovliga qaragan to'rtta bag'dodi eshikdan iborat. Bu xonadan marosim ishtirokchilarining quvvatini saqlash maqsadida nabbotchoy va gulob tarqatilgan. Usti yog'och vassalik bolorlar bilan cho'pkori uslubda tiklangan. Xonada marosimlar uchun kerakli idishlar va mahsulotlar saqlangan. Yopiq hovlining o'ng va chap tomonida bittadan kichik va bittadan uzun xonalar o'rin olgan. Yopiq hovli yuqorisida eng yirik xona bo'lib, unda minbar va husayniyaga ixlos bilan vaqf(tuxfa) qilingan ashyolar, Hazrati Ali va u kishining avlodlari ziyoratgohlari qabrlari suratlari, a'lam, debochalar ham saqlangan. Ashura marosimida devorlarga uriladigan lavhalar ham shular jumlasidandir. Husayniyxonaning birinchi qavatida erkaklar namoz o'qishsa, ayollar uchun ikkinchi qavat ham asosan ayvon shaklida qurilgan bo'lib, uch tomoni ayvon va yuqoridagi xona baland qilib qurilganligi sababli va imom shu tomonda turishini inobatga olib ikkinchi qavati qurilmagan. Ikkinchi qavatning ichki hovli tomoni ustinar bilan o'ralgan va ashura vaqtida old tomoni parda bilan yopilgan. Umumiy bu yerda xusayniyxona, masjid, tobutxona, sharbatxona kabi majmua joylashgan. Arxitektura jihatidan tarixiy husayniyxona tarxini shu yerda yaqqol ko'rish mumkin.

Xulosa. Buxoro shahri va uning atrofi bo'ylab joylashgan eroniylar ashuro marosimlarini maxsus husayniyxonalarda yoki biror yirik uylarda o'tkazishgan. Marosim uzoq vaqt kecha va kunduz davom etgan. Bu vaqtda marsiyalar, nahvalar, turli afsonalar, Karbalo voqealariga bag'ishlangan tarixlar, she'rlarni o'qishgan va shu yerda ijod qilishgan. Marosim bilan bog'liq turli ashyolar(turli asarlar, zanjir, panja, katiba, ziyoratnoma, a'lam...) esa bu xalqning moddiy madaniyatidan namunalar sifatida hozirgacha saqlab kelinmoqda. Umuman olganda husayniyxonalar mahalliy eroniylar tarixini o'rganishda muhim obekt hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. Fors-tojik tilidan A.Rasulov tarjimasi. T.:1966.B. 83.
2. О.А.Сухарева. Бухара(ХІХ – начала ХХ в.) С.160.
3. Ф.Д. Люшкевич. Этнографическая группа ирони // Занятия и быт народов Средней Азии. Л.: 1971. С.54.
4. О.А.Сухарева. Квартальная община позднефеодального города Бухары. М.:1976. С.223.



Tor-tor mahalla husayniyasi ikkinchi qavati. Foto Sh.Boltayev. 2006.



Xo'ja Mirali masjidi. Foto Sh.Boltayev.
2006.



Zirobod husayniyasida Ashuro. Foto Sh.Boltayev. 2005.